



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Chiroqchi tumani 2022-yil 9-mart 4-1807-2201/150-sonli ish**

Chiroqchi tuman iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, da'vogar vakili M.Bobonazarov (2022-yil 14-fevraldagi 4-sonli ishonchnoma asosida) ishtirokida, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining da'vogar "██████████" mas'uliyati cheklangan jamiyati manfaatida javobgar "██████████" fermer xo'jaligidan 58.292.480 so'm asosiy qarz va 5.829.248 so'm jarima undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha ishni "██████████" MChJ binosida ochiq sayyor sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi da'vogar "██████████" mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon matnda – da'vogar deb yuritiladi)ning manfaatida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar "██████████" fermer xo'jaligi (bundan buyon matnda – javobgar deb yuritiladi)dan 58.292.480 so'm asosiy qarz va 5.829.248 so'm jarima undirishni, shuningdek ishni palata vakilining ishtirokisiz ko'rib chiqishni so'ragan.

Sudning 2022-yil 18-fevraldagi ajrimi bilan ishga "██████████" AJ nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan.

Sud majlisida ishtirok etgan da'vogar vakili da'vo arizada keltirilgan vajlarni qo'llab-quvvatlab, ma'lumotnoma taqdim qilib, da'vo talabida so'ralgan jarima undirish talabini sudga havola qilishini, asosiy qarzdorlikni to'liq qanoatlantirishni so'radi.

Uchinchi shaxs "██████████" AJ tomonidan 2022-yil 9-martda ariza taqdim qilingan bo'lib unga ko'ra, ishni o'zining ishtirokisiz ko'rish so'ralgan.

Javobgar ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan bo'lsa-da, sud majlisiga kelmadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 128, 170-moddalariga asosan sud ishni javobgar, palata va Uchinchi shaxs "██████████" AJ vakillarining ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topdi.

Ishdagi hujjatlardan va sud jarayonida aniqlangan holatlardan ma'lum bo'lishicha, javobgar fermer xo'jaligining "██████████" AJ oldidagi qarzdorligi "██████████" MChJga o'tkazilganligi haqida uch tomonlama shartnoma (majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi haqida) imzolangan bo'lib,

ushbu shartnoma Chiroqchi tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan.

Taraflar o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomaning 1.1 bandiga ko'ra, "qarzdor" o'zining "haqdor" oldidagi urug'lik don hisobidan yuzaga kelgan qarzini "qarzni qabul qiluvchi"ga o'tkazish, 1.2-bandida "qarzni qabul qiluvchi" "qarzdor"ning "haqdor" oldidagi urug'lik hisobidan yuzaga kelgan qarzni to'lash, 1.3-bandiga ko'ra "haqdor" esa "qarzdor"ning urug'lik don hisobidan yuzaga kelgan qarzni "qarzni qabul qiluvchi"ga o'tkazish va hisob-kitob qilish majburiyatini olishgan.

Da'vogar tomonidan shartnoma shartlari to'liq bajarilib, "qarzdor"ning "haqdor" oldidagi qarzdorligi "qarzni qabul qiluvchi" ya'ni da'vogar tomonidan to'lab berilgan.

Shuningdek, javobgarning bankdan qoplanmagan imtiyozli kreditdan ham qarzdorligi mavjud bo'lib ushbu qarzdorlik da'vogar tomonidan qoplangan bo'lib javobgar tomonidan da'vogarga to'lanmasdan qolgan.

Da'vogarning jami 64.121.728 so'm qarzdorlikni to'lab berish to'g'risidagi talabnomasi javobgar tomonidan oqibatsiz qoldirilgan.

Natijada ushbu nizo kelib chiqib, palata da'vogarning manfaatida qarzdorlikni undirish so'rab sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Da'vo talablari asoslidir.

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda - FK deb yuritiladi) 8, 234-moddalariga ko'ra majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Mazkur holatda taraflar o'rtasidagi ushbu nizo shartnomaviy majburiyatni bajarmaganlik oqibatida kelib chiqqan.

Vaholanki, FKning 236-moddasida majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi, 237-moddasiga ko'ra majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur 58.292.480 so'm asosiy qarzdorlik, da'vogar tomonidan taqdim qilingan ma'lumotnoma, bank to'lov topshiriqnomasi va uch tomonlama shartnoma (majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi) bilan ham o'z tasdig'ini topgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud da'vogarning asosiy qarz undirish talabini to'liq qanoatlantirishni lozim topadi.

Shuningdek, da'vogar shartnomaning 4.1 bandiga asosan jarima hisoblab, javobgardan 5.829.248 so'm jarima undirishni ham so'ragan.

FKning 326-moddasiga asosan agar to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibliigi ko'rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli. Bunda qarzdor majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, shuningdek kreditorning manfaatlari e'tiborga olinishi kerak. Sud alohida hollarda qarzdor va kreditorning manfaatlarini hisobga olib, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoykani kamaytirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy (xo'jalik) sudi Plenumining "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida" 2007 yil 15 iyundagi 163-sonli qarorining 4-bandida, FKning 326-moddasiga muvofiq sud qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilish darajasini, majburiyatda ishtirok etuvchi taraflarning mulkiy ahvolini, shuningdek kreditorning manfaatlarini e'tiborga olib, neustoyka miqdorini kamaytirishga haqliligi to'g'risida tushintirish berilgan.

FKning 335-modadsiga ko'ra, agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan bo'lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralari qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli.

Shunga ko'ra sud, javobgarning mulkiy ahvolini inobatga olib, da'vo talabida so'ralgan jarimani qanoatlantirishni rad etishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118-moddasiga ko'ra, sud xarajatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda ularning zimmasiga yuklatiladi, agar da'vogar tomonidan bildirilgan neustoykani undirish haqidagi talab asosli bo'lib, biroq uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan huquqdan foydalanilgan holda sud tomonidan kamaytirilgan bo'lsa, sud xarajatlarining kamaytirilishi hisobga olinmagan holda undirilishi lozim bo'lgan neustoyka summasidan kelib chiqqan holda sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatilishi lozim.

Bayon etilganlarga ko'ra sud, da'vo talablarini qisman qanoatlantirishni, javobgar hisobidan da'vogar foydasiga 58.292.480 so'm asosiy qarz, va oldindan to'langan 21.600 so'm pochta harajati, Respublika budjetiga javobgar hisobidan 1.282.434,56 so'm davlat boji undirishni da'voning qolgan qismini qanoatlantirishni rad etishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 112-113, 118, 176-179, 186, 192-moddalarini qo'llab, sud

### **q a r o r   q i l d i :**

Da'vo qisman qanoatlantirilsin.

Javobgar "██████████" fermer xo'jaligi hisobidan da'vogar "██████████" MChJ foydasiga 58.292.480 so'm asosiy qarz va oldindan to'langan 21.600 so'm pochta harajati;

Respublika budjetiga 1.282.434,56 so'm davlat boji undirilsin.

Da'voning qolgan qismini qanoatlantirish rad etilsin.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach ijro varaqalari berilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan bir oylik muddat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**A.Qodirov**